

## TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH

**Kazakov Olim Sabirovich**

Namangan davlat texnika universiteti  
“Menejment” kafedrası professori, i.f.n.

E-mail: [olimkzkv@gmail.com](mailto:olimkzkv@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Korxonalar faoliyati samarasini ta’minlashda ishlab chiqarish resurslarining o’rni va ahamiyati nihoyatda kattadir. Maqolada to’qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va ulardan ichki bozorda talabni rag’batlantirish yo’nalishida samarali foydalanishni yo’lga qo’yish maqsadida boshqarishni tashkil etish o’rganilgan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** iqtisodiyot rivoji, korxonalar, ichki bozor, talab, aholi daromadlari, ishlab chiqarish resurslari, boshqarish, talabni rag’batlantirish.

### **Аннотация**

Роль и значение производственных ресурсов в обеспечении эффективности деятельности предприятия чрезвычайно велики. В статье исследуется организация управления на текстильных предприятиях с целью обеспечения эффективного использования производственных ресурсов и их эффективного применения для стимулирования спроса на внутреннем рынке, а также разработаны предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** экономическое развитие, предприятия, внутренний рынок, спрос, доходы населения, производственные ресурсы, управление, стимулирование спроса.

### **Abstract**

The role and importance of production resources in ensuring the effectiveness of enterprises’ activities is extremely large. The article studies the organization of management in textile enterprises in order to establish effective use of production resources and their effective use in stimulating demand in the domestic market, and develops proposals and recommendations.

**Keywords:** economic development, enterprise, domestic market, demand, population income, production resources, management, demand stimulation.

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqiga qilgan Murojaatnomasida iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan. Ularning ichida ichki bozorda talabni rag‘batlantirish alohida e’tibor qaratilgan muhim yo‘nalish sifatida ajralib turadi. Mamlakatda qulay biznes muhiti yaratilgani, tovar va xizmatlar hajmi va turlari kengaygani, aholining daromadlari oshib, kambag‘allik darajasi kamaygani kuzatilmoqda. Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili milliard dollarga yaqin imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Inflyatsiya darajasi bir xonali ko‘rsatkichgacha pasaygani

hisobiga narx-navo barqarorlashib, natijada aholining xarid qobiliyati sezilarli darajada oshgani qayd etilgan[2].

Aholining xarid qobiliyati o'sishiga sanoat korxonalarimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, bozorlarda aholi uchun taklif etilayotgan to'qimachilik mahsulotlari tarkibi ham o'zgarib bormoqda. Ko'plab yangi turdagi mahsulotlar taklif etilmoqda. Ichki bozordagi to'qimachilik mahsulotlari sektorida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalarini bilan bir qatorda turli xorijiy mamlakatlardagi bu kabi korxonalar mahsulotlari ham o'rin olgan. Bu bozordagi raqobat kurashi keskinlashib bormoqda. To'qimachilik korxonalarini bozordagi talabni rag'batlantirish orqali o'z mahsulotlarini sotishni amalga oshirishlari natijasidagina o'z faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin. Aks holda, ular faoliyatida murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Ichki bozorlarda talabni rag'batlantirish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarning jozibadorlik darajasini oshirish bilan bir qatorda narxini ham pasaytirish lozim. Bu murakkab masalaning yechimi to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslarini boshqarishni takomillashtirish orqali hal qilinadi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Korxonalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati samarasini oshirishda mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko'plab olimlar va tadqiqotchilar ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borganlar va o'z fikrlarini bildirganlar.

A.N. Rodnikov resurslarni iqtisodiy tizim elementlari sifatida ta'riflaydi: "Resurslar — iqtisodiy tizim elementlari bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni davomida iste'mol qilinadi yoki ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Ularga mehnat, yer, kapital (binolar va qurilmalar, texnologik dastgohlar, transport vositalari) kiradi" [3].

L.I. Abalkin rahbarligidagi mualliflar resurslarga shunday ta'rif berdilar: "Ishlab chiqarish resurslari — iqtisodiy nazariyaning asosiy tushunchasi bo'lib, ishlab chiqarishni ta'minlash vositalari va manbalaridan iborat bo'ladi" [4].

Ishlab chiqarish resurslari deganda korxonalar va tashkilotlar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalari, zaxiralar, korxonaning amal qilishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklar, umuman olganda barcha ishlab chiqarish omillari tushuniladi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish masalalari A.Sh. Bekmurodov, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxo'jayeva, N.K. Yo'ldoshev, S.S. G'ulomov, Y.A. Abdullayev, H.P. Abulqosimov, A.A. Qulmatov, Q. Muftaydinov, M.R. Boltabayev, U.V. G'ofurov, Sh.I. Mustafuqulov, S.N. Usmonov, A. G'ofurov, M. Abduraxmonova va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotni o'tkazish jarayonida ishlab chiqarish resurslari va ulardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Ushbu masala bo'yicha shug'ullangan olimlar va mutaxassislarning yondashuvlari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, sabab–natija aloqalari, tizimli yondashuv,

tanlama kuzatuv, solishtirma tahlil hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda raqobat kurashi tobora keskinlashib borayotgan hozirgi davrda to‘qimachilik korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. To‘qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy resurslarni topish masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni bu resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishdir. Bu yo‘nalishda ishlab chiqarish resurslarini boshqarishning ahamiyati kattadir.

1-jadval.

### To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni strategik boshqarish va ularni korxonaga faoliyatiga ta’siri<sup>1</sup>

Mavjud strategiyalar	Strategiyani asoslash	Faoliyatdagi oqibatlar
1. Foydalanilayotgan ishlab chiqarish resurslarini saqlab qolish.	An’anaviy iste’molchini saqlab qolish.	Bozor hissasi qisqaradi. Foyda miqdori kamayadi.
2. Sifatli materiallardan foydalanish orqali sifatni oshirish.	Yuqori sifatli mahsulotga narxning ortishi xarajatlarni qoplashga imkon beradi.	Bozor hissasi qisqaradi. Foydalilik darajasi pasayadi. Yangi iste’molchilar jalb qilinadi.
3. Narxni o‘zgartirmagan xolda resurslarning sifatini yaxshilash.	Xarajat kamroq bo‘lgan xollarda samarali bo‘ladi. Ayrim xollarda xarajatlar ortib ketadi.	Bozor hissasi qisqaradi. Qisqa muddatda foydalilik darajasi pasayadi, uzoq muddatda esa o‘sadi.
4. Narxni pasaytirishga imkon beradigan resurslardan foydalanish.	Buyurtmachilarga narxni pasaytirilganligini yetkazish. Taklif qiymati ortadi.	Bozor hissasi ortadi. Foydalilik darajasi qisqa muddatda kamayadi, uzoq muddatda ortadi.
5. Mavjud resurslardan foydalangan xolda xarajatlarni kamaytirish.	Narx bo‘yicha raqobatni saqlab qolish	Bozor hissasini saqlab qolish. Foydalilik darajasi pasayadi.
6. Yangi turdagi resurslardan foydalanish orqali yangi turdagi mahsulotni taklif qilish.	Iste’molchi ehtiyojlarini qondirish	Tavakkalchilik va xavf-xatar darajasi ortadi kelajakda katta foyda kelishi mumkin.

To‘qimachilik korxonalari o‘z ishlab chiqarish faoliyatidagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida holatga mos ravishda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish hajmini oshirishga yoki kamaytirishga majbur bo‘ladilar. Faoliyat samarasini oshirish va bozordagi aholi talablarini rag‘batlantirish maqsadida ishlab chiqarish resurslarining turlarini o‘zgartirishlari ham mumkin. Bunda mahsulot sifatiga ta’sir etmaydigan va tannarxni o‘zgartirmaydigan variantlarni izlashga majbur bo‘ladilar. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslarini boshqarishda turli

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

strategiyalardan foydalaniladi. Bu strategiyalarni asoslash va ularning oqibatlari, ulardan foydalanishning korxonalar faoliyatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar 1-jadvalda ko'rsatilgan. Bu jadval ma'lumotlari har qanday boshqarish strategiyasining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlari ham bo'lishini ko'rsatadi (1-jadval).

To'qimachilik korxonalar o'z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilib borgan holda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish strategiyasini tanlaydilar. Bunda ular o'zgarib turgan bozor talabi va taklifi, raqobatchilar holati, iste'molchilarning daromadlari, ta'minotchilardagi o'zgarishlarni inobatga olishlari muhim holat hisoblanadi.

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish jarayonida boshqaruvning bir qator iqtisodiy vositalaridan foydalaniladi:

1. Zaxiralarni boshqarish.
2. Narxlarni belgilash.
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash.
4. Moliyaviy natijalarni yaxshilash.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni boshqarishda samarali mexanizmlardan foydalanish zarur. To'qimachilik korxonalar faoliyati samarasini oshirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqarish asosida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish mexanizmini yaratish bugungi kundagi muhim vazifalardan hisoblanadi. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi ichida narxlar va narxlashtirish tizimi markaziy o'rinni egallaydi. Narxlar va narxlashtirish tizimida to'qimachilik korxonalar iqtisodiy-xo'jalik faoliyatining barcha tomonlari aks etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida narxlarning o'rni va ahamiyati birmuncha o'zgaradi, narxlarning shakllanishi va rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Narxlashtirish tizimida sifat o'zgarishlari amalga oshdi. Ushbu o'zgarishlarning asosi narxlarning ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish vazifasining kuchsizlanishi oqibatida qiymat qonunining harakat qilish sohasi cheklanishidir. Buning o'rniga boshqa omillar ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, o'zgarimas narxlar va mustahkam bozor sharoitlarini nazarda tutgan holda ishlab chiqarish faoliyatini istiqboldagi rejalar va rivojlanish dasturlariga yo'naltirish bilan bog'liq hamda bozor ehtiyojlarini to'laroq hisobga olgan holda resurslarni tanlash va ulardan foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilishdir.

Faoliyatni amalga oshirish davomida korxonalar o'zlarining narxlashtirish sohasidagi siyosatlarini belgilaydilar va mahsulotlarga bo'lgan talab asosida mahsulotlar talabini muvofiqlashtiradilar. Bu mahsulot ishlab chiqarish hajmini moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, kapital xarajatlari sarflash ham amalga oshirilishi mumkin. Bunday harakatlar natijasida bozordagi bir xil mahsulotlarga bo'lgan narxlarni ma'lum muddat davomida ushlab turish imkoniyati yaratiladi.

Narxlashtirish mexanizmida narxlarni o'rnatish uslubiyotini yaratish va narxlar strukturasi aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda eng keng tarqalgan usullardan biri xarajatlarni hisobga olgan holda maqsadli narxlashtirish usulidir. Bu

usulda narxlar darajasi ishlab chiqarish xarajatlarini hamda foyda me'yorini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

$$H = X_i/ch + F_M$$

Bu yerda: H - mahsulot narxi;

$X_i/ch$  - ishlab chiqarish harajatlari;

$F_M$  - foyda me'yor.

Bunday narxlarni o'rnatishda ishlab chiqarish xarajatlari haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga emas, balki ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning o'rtacha darajasida hisoblangan mahsulot hajmiga nisbatan aniqlanadi. Bunda mahsulot imkoniyatlari hamda tarmoqda yangi raqobatchilar paydo bo'lish ehtimoli ham e'tiborga olinadi. Shu orqali korxonalar bozor talabi o'zgarishlarini hisobga olishga harakat qiladilar. Ular ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanilmagan holatda ham samarali (rentabelli) faoliyatni ta'minlashni belgilaydilar. Bozordagi o'zgarishlar natijasida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini o'zgartiradilar. Ammo yuqori samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanish lozim. Boshqaruv faoliyatida ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanishga intilish amalga oshirilishi kerak.

Ishlab chiqarish resurslarini boshqarishni takomillashtirishda talabni rag'batlantirish maqsadida narxlar strukturasi muhim ahamiyatga ega. Narxlar strukturasi narxning ayrim elementlarining foizdagi nisbatidir. Hozirgi iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida narxlar strukturasi yangi elementlar paydo bo'lmoqda: ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari, amortizatsiya ajratmalari, o'rtacha transport xarajatlari, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, yangi mahsulotni o'zlashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratmalar, bozor tadqiqotlari xarajatlari. Shu bilan birga, ma'muriy xarajatlari, reklama xarajatlari va sotuv tarmoqlarini tashkil etish xarajatlari hissi ortib bormoqda va ularning narxga ta'siri kuchaymoqda.

To'qimachilik korxonalaridagi narxlashtirish jarayonida talabni rag'batlantirish maqsadida faoliyatda yuzaga keladigan holatlar hamda boshqaruv strategiyalari hisobga olinadi. To'qimachilik korxonalarida globallasuv sharoitida narxlashtirish jarayonida quyidagi muhim savollarga javob topilishi kerak:

1. Resurslar turlari bo'yicha xarajatlar darajasi qanday?
2. Ortib borayotgan xarajatlarni qoplay olamizmi?
3. Murakkablik sharoitida korxonalar faoliyatini saqlab qola olamizmi?
4. Xaridorlar va iste'molchilar talablari hamda ularning daromadlari darajasi qanday?
5. Iste'molchi istagi nimalarga va qanday miqdorda yo'naltirilgan?
6. Raqobatchilarning holati va ular o'rnatgan narx darajasi qanday?

Iqtisodiy elementlar bo'yicha aniqlangan ishlab chiqarish smetasi bir turdagi elementlar jamlanmasidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Tannarx kalkulyatsiyasi esa kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha xarajatlarni guruhlash asosida aniqlanadi. Fikrimizcha, tannarx kalkulyatsiyasi kattaroq ahamiyatga ega, chunki kalkulyatsiyada xarajatlar sarflanayotgan joyi va maqsadiga mos ravishda guruhlanadi.

Iqtisodiy tahlil va xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun ushbu usuldan foydalanish mumkin.

To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini aniqlashda turli muqobil variantlar tuziladi va ular ichidan eng maqbul, ya’ni samaralisi tanlab olinadi. Samarali variantni tanlashda asosiy mezon — ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va bir birlik mahsulotga ketadigan sarf-xarajatlarni qisqartirishdir.

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiruvchi moddalar tashqi ta’sir ostida o‘zgaruvchan bo‘lsa, imkon qadar bu o‘zgarishlarni ichki imkoniyatlardan foydalangan holda bartaraf etish lozim. Hozirgi vaqtda ayrim korxonalar rahbariyati bunday o‘zgarishlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot narxiga qo‘shib, narxni oshiradilar. Bu esa sotuv hajmining kamayishiga va iste’molchilarga qiyinchilik tug‘dirishiga olib kelishi mumkin.

Korxonalar faoliyatni tashkil etishda, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni boshqarishda hamda ushbu jarayonlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga narx belgilashda mahsulot sotilayotgan bozorlardagi holatni muntazam o‘rganib borishlari, bozor konyunkturasini, talab va taklif darajasini, iste’molchilar istagi va uni qondirilish darajasini tahlil qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun to‘qimachilik korxonalarida marketing xizmatini kengaytirish, imkon bo‘lsa, bozorni o‘rganish bo‘limini tashkil etish lozim.

To‘qimachilik korxonalaridagi bozorni o‘rganish bo‘limi o‘z faoliyati davomida quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- korxonadan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari va sifatini muntazam tahlil qilib borish;
- raqobatchilarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini o‘rganish va o‘z faoliyati bilan solishtirish;
  - bozor konyunkturasini o‘rganish;
  - bozor ulushini oshirishga doir chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;
  - iste’mol tanlovi nazariyasi asosida iste’molchi istagi, uning byudjet chizig‘i va farqsizlik chizig‘ini muntazam tahlil qilib borish;
- mahsulot sotish hajmini tahlil qilish va uni oshirish bo‘yicha tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish;
- korxonada faoliyatini yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlash va ularni amalga oshirishda qatnashish.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samarasini oshirish uchun tuzilgan boshqaruv mexanizmi texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samarasini ta’minlash uchun foydalanilayotgan barcha dastgohlar va moslamalardan foydalanish darajasini oshirish, faoliyatda qatnashayotgan barcha xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri tashkil etish va ularni har tomonlama rag‘batlantirish, boshqaruv va boshqa barcha munosabatlarni takomillashtirish zarur. Buning natijasida korxonalarda foyda va rentabellik darajasining ortishiga erishiladi hamda o‘zgarib turuvchi muhitda samarali faoliyat ta’minlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

To‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan ichki talabni rag‘batlantirish maqsadida ularda foydalaniladigan ishlab chiqarish resurslarini samarali boshqarish talab etiladi. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish resurslarini boshqarishda ichki talabni rag‘batlantirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish lozim:

1. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning, sifatga ta‘sir ko‘rsatmagan holda, murakkablik darajasini soddalashtirish, aholining ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabini har tomonlama tahlil qilish va olingan natijalardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish.

2. To‘qimachilik korxonalarining faoliyatida foydalanilayotgan resurslarga nisbatan arzon turdagi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish, tashqi ko‘rinishga e‘tibor qaratish, mahsulotlarning sifat xususiyatlarini kamaytirmagan holda tashqi dizaynini yanada yaxshilash maqsadida ushbu materiallardan foydalanish.

3. To‘qimachilik korxonalarida tejamkor va yuqori unum bilan ishlaydigan dastgoh va moslamalarni yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish, turdosh korxonalariga nisbatan yuqori samarador texnologiyalardan foydalanish, mutaxassislar tomonidan samarasi yuqori bo‘lgan dastgohlar va asbob-uskunalarni yaratishga qaratilgan sa‘y-harakatlarni amalga oshirish va ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni har tomonlama rag‘batlantirish.

4. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladigan barcha mahsulot turlarini o‘zaro moslashtirish va muvofiqlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini universallashtirish, bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqarilayotgan dastgohlarda sozlashsiz boshqa turdagi mahsulotlarni ham ishlab chiqarish imkoniyatiga erishish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Toshkent. 26-dekabr 2025-yil. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.

3. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. - М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 290 с., с.86.

4. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. - М.: ИНФРА-М, 2016., с.91

5. Kazakov O.S. Menejment. Namangan «Usmon Nosir media», 2023, - 16,25 б.т.

6. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Daslik. Toshkent. “Fan ziyosi”, 2022-yil, 378 bet.

7. Amir Temur tuzuklari. – T.: Navro‘z, 1996 – 344 b.

8. Ричард Л. Дафт «Уроки лидерства». – Москва: Эксмо 2007.

9. Кови С. Семь навыков высокоэффективных людей. – М., 1996. - С. 9.

10. Yo‘ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2013. -312 b

11. A.S.Kucharov Menejment: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2009. -286 b.
12. M.Sharifxo‘jayev, Y.Abdullayev. Menejment. Darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002.-450 b.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**